

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Termiz iqtisodiyot va servis  
universiteti rektori

Dots. A. Sattarov

2024 yil

MAXUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

FANINING O'QUV DASTURII

Bilim sohasi: 200000 - San`at va gumanitar soha  
Ta`lim sohasi: 220000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)  
Ta`lim yo`nalishi: 70220301 - Tarix (yo`nalish va faoliyat turi bo'yicha)

Termiz – 2024

Fan/modul kodi MFO'M1305	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	MAXUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI	72	108	180

2.

### I. Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** – “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga fanlar, ularni o'rganish va o'qitish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy, tajribaviy izlanishlarni rejalashtirishni, maxsus adabiyot, meyoriy hujjatlarni o'rganib, xulosa va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – I kurs magistrantlarga Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslarini o'rgatish, mutaxassislik fanlarini o'qitishda qonuniyatlar, tamoyillar, nazariy asoslar haqida chuqur bilim berishdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism

#### II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanining tadqiqot doirasi. Tadqiqot tamoyillari va metodlari. Maxsus fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

Maxsus fanlarini o'qitish metodikasining asosiy ko'rinishlari, sohalari va tarkibiy tuzilishlari. Maxsus fanlarini o'qitish tamoyillari. Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Talaba yoshlarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda “Oliy va professional ta'limda maxsus fanlarini o'qitish metodikasi” fanining o'rnini va roli. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tabiiy etishning dolzarb masalalari

#### 2-mavzu: Maxsus fanlari ta'lim mazmunini tanlash mezonlari

Maxsus fanlarini o'qitishga qo'yilayotgan yangicha talablar va mezonlari tushunchasi, mazmuni va mohiyati. Uni taqozo etadigan shart sharoitlar va omillar. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarini o'qitishdagi o'zgarishlar va yangilanishlar. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli

va unda oliy ta'lim: bakalavriat va magistratura. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim. Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lim muassalari faoliyatini baholash mazmuni.

### **3-mavzu: Maxsus fanlarini o'qitish jarayonining tuzilishi**

Maxsus fanlarini o'qitishning shakllari va tuzilishi. Maxsus fanlarini o'qitish shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, o'quv amaliyoti, malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasining ilmiy asoslari. Maxsus fanlarini o'qitish shakllarining o'zaro aloqadorligi, umumiy va o'ziga xos farqli jihatlari. Maxsus fanlarini o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qitish shakllarini hisobga olishning ahamiyati.

### **4-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari**

Davlat ta'lim standartlari. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" ta'lim yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qoyiladigan talablar. Baho meyorlari taksonomiyasi. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishining integratsiyalashgan ta'lim dasturlari tuzilmasi va mazmuni.

Maxsus fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi.

### **5-mavzu: Maxsus fanlardan o'quv amaliyotini tashkil etish**

Maxsus fanlarini o'qitishda nazariya va amaliyot birligi. O'quv amaliyotini tashkil etish maqsadi va vazifalari. O'quv amaliyotini tashkil etish shakllari. O'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish. Maxsus fanlari bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishida ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarining o'tkazilishini kuzatish va tahlil qilish. Ta'lim muassasasi va talabalar turar joylarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rejalari bilan tanishish, tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida ishtirok etish.

O'quv amaliyotini tashkil etishning maxsus fanlarini o'rganishdagi ahamiyati. O'quv-ishlab chiqarish ishlarini me'yorlashtirish va tashkil etish.

### **6-mavzu: Maxsus fan o'qituvchisining o'quv me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasi**

Maxsus fanlari o'qituvchisining o'quv me'yoriy hujjatlari: fanning o'quv dasturi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'qituvchining fanga doir taqvim mavzuiy rejasi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, o'quv uslubiy majmua.

Fanning o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi, ularning o'zaro aloqadorligi va bir-biridan farqi. Taqvim mavzuiy rejaning tuzilishi va unga

qo'yilayotgan talablar. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlashning o'ziga xos jihatlari. O'quv uslubiy majmualar, unga qo'yilayotgan talablar va ularni amalga oshirish metodikasi.

### **7-mavzu: Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish**

Maxsus fanlarini o'qitishda professor o'qituvchining o'rni va roli, unga qo'yiladigan talablar. Professor o'qituvchilarning asosiy vazifalari. Talabalarni o'quv jarayoniga jalb etishning tashkiliy-uslubiy shakllari. Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bugungi kun talabasiga qo'yiladigan talablar. Talabalarning o'quv bilish faoliyatini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati.

Maxsus fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar. Mashg'ulot samaradorligini oshirishda yangi zamonaviy metodlar va texnologik vositalardan foydalanishning ahamiyati. Mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari, uning zamonaviy ko'rinishlari. Mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy vositalar. Ularning o'zaro aloqadorligi va xilma xilligi.

### **8-mavzu: Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari**

Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim darajalarini aniqlash, uni baholash va tahlil etish. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari. Kuzatish, savollarga javob berish layoqati va tashabbuskorligini aniqlash, talabning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'rganish, o'quv material va qo'shimcha manbalarni o'zlashtirganlik darajasi va xotira qobiliyatini hisobga olish va tahlil etishning ahamiyati.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda mutaxassis xulosalariga tayanish.

### **9-mavzu: Maxsus fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash**

Maxsus fanlarining didaktik ta'minoti tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi. Didaktikaning maqsad – vazifalari va asosiy tushunchalari. Didaktikaning asosiy tushunchalari: ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari, ta'lim vositalari, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish va hk.

Maxsus fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish va unga qo'yiladigan talablar. Maxsus fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqishda professor o'qituvchining mas'uliyati. Mashg'ulot ishlanmalari, uning tarkibiy tuzilishi. O'quv uslubiy majmualarning tuzilishi va unga qo'yiladigan talablar. O'quv uslubiy majmualarning tuzilishi: fan dasturi, ishchi o'quv dastur, ma'ruza

mashg'ulotining o'qitish texnologiyalari, ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi, ma'ruza rejasi, mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar, tarqatma materiallar, slaydlar, o'quv topshiriqlari, talabalar bilimni mustahkamlash uchun savollar, mavzuning qisqacha ma'ruzasi bayoni.

### **10-mavzu: Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirishning nazariy asoslari**

Ochiq darslarning tuzilishi, ularning odatiy darslardan farqli jihatlari. Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish Nizomi va unda belgilangan tartib va qoidalar.

Ochiq dars mashg'ulotlarini rejalashtirish, uni o'tkazish va rasmiylashtirish tartiblari. Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazishning ahamiyati. Ochiq mashg'ulotlarning shakllari va ko'rinishlari. Ochiq dars mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Ochiq darslarni elektron portalga joylashtirish imkoniyatlari va afzalliklari. Ochiq mashg'ulot o'tkazish masu'liiyati va uning darslar samaradorligiga ta'siri. Kafedra yig'ilishida ochiq darslar tahlili va monitoringini olib borishning ahamiyati.

### **11-mavzu: Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash**

“Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida” gi Nizom va unga qo'yilgan talablar.

O'qitish jarayonida reyting tizimidan foydalanish va uning afzalliklari. Reyting tizimidagi joriy nazorat, oraliq nazoratlari va yakuniy nazoratlarni amalga oshirish. Dars jarayonida talabalarning kundalik bilimlarini nazorat qilish va baholashning mezonlari. Oraliq nazorat va unga qo'yiladigan talablar. Yakuniy nazorat, uni o'tkazish tartiblari.

### **12-mavzu: Yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish**

O'quv rejasi va o'quv ishlarini tashkil etishni rejalashtirish. O'quv ishlarini yillik rejaga mosligini ta'minlash. O'quv rejasining yil va semestrlarga bo'linishi va o'quv fanlari bloklariga taqsimlanishi. O'quv ishlari va dars taqsimotlari. O'qituvchilarning o'quv yuklamasi meyorlari va unga qo'yilgan talablar. Professor o'qituvchining shaxsiy ish rejasi yillik o'quv yuklamasi: o'quv ishlari (kuzgi-bahorgi semestr), ilmiy –uslubiy ishlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, tashkiliy-metodik ishlar, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar. Ularni o'quv ishlarini tashkil etilishini to'g'ri rejalashtirishdagi ahamiyati. O'qituvchining reyting daftarchasi.

Professor o'qituvchi faoliyatini baholash reyting tizimining joriy etilishi va uning ahamiyati.

### **13-mavzu: Auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish**

Auditoriyadan tashqari ish shakllari va ko'rinishlari. Mustaqil ishlarni tashkil etish to'g'risidagi Nizom va unga qo'yilgan talablar. Mustaqil topshiriqlarni bajarish turlari: referat, esse, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, qo'shimcha manbalar ustida ishlash, krossvordlar va test savollari tuzish va hk.

Auditoriyadan tashqari ishlarga rahbarlik qilishning zarurligi. Talabalarni auditoriyadan tashqari ishlarga to'g'ri yo'naltirishda rahbar mas'uliyati. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish. Kurs va malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilish. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga rahbarlik qilish va talabalarni ma'naviy-targ'ibot ishlariga jalb etish.

### **14-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish**

Maxsus fanlarini o'qitishda zamon talablari va o'zgarishlarni hisobga olish zarurligi. Axborot sohasidagi yangilanishlar va yangi texnologiyalar. Axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish orqali maxsus fanlarini o'qitishni yanada takomillashtirish. Multimedia dasturlarining shakllanishi, ularga qo'yiladigan talablar. Multimedia dasturlarining tuzilishi va uning rang-barangligi. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni yot va zararli g'oyalar ko'rinishlaridan himoyalashda maxsus fanlarini zamon talabi asosida o'qitishning o'rni va ahamiyati.

Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va yoshlarga turli xil ta'siri. Dars jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish. Axborot xurujlari, ma'naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda maxsus fanlari yutuqlariga tayanish, uning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish.

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

#### **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Oliy va professional ta'limda maxsus fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari
2. Maxsus fanlari ta'lim mazmunini tanlash mezonlari
3. Maxsus fanlarini o'qitish jarayonining tuzilishi
4. Maxsus fanlarini o'qitishning tashkiliy shakllari
5. Maxsus fanlaridan o'quv amaliyotini tashkil etish
6. Maxsus fan o'qituvchisining o'quv me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasi
7. Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish
8. Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari
9. Maxsus fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash

10. Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirishning nazariy asoslari

11. Maxsus fanlarini o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash

12. Yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish

13. Auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish

14. Maxsus fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish

Seminar mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga binoan Oliy ta'lim tizimida maxsus fanlarni o'qitishda o'tkazilayotgan islohatlar, muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.
2. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
3. Rivojlanishning erishilgan darajasi, kamchiliklar va muammolar.
4. Maxsus fanlarni o'qitishning shakl va metodlari: leksiya, seminar va amaliy mashg'ulotlar, o'quv anjumanlari, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, ilmiy pedagogik faoliyatini tashkil qilish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, magistrantlik dissertatsiyalari.
5. "Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi"ning fan sifatida shakllanishi.
6. "Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi" fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqot tamoyillari va metodlari.
7. Maxsus fanlarini o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.
8. "Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi" fanini o'qitilishida barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning aloqadorligi va ilmiy ahamiyati.
9. Ma'naviy dunyodarashning shakllantirishda "Maxsus fanlarini o'qitish metodikasi" fanining o'rni va roli.
10. Maxsus fanlarini o'zlashtirishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va maxsus fanlarini o'qitish metodikasi orqali o'zlashtirish jarayoni.
11. Baho meyorlari taksonomiyasi.
12. Darsning texnologik xaritasini tuzish hamda an'anaviy va noan'anaviy tarzda dars ishlanmalarini ishlab chiqish borasida magistrant talabalarda dastlabki ko'nikma va tasavvurlarni hosil qilish.
13. O'qituvchilar yuklamasi meyorlari.
14. Talabalarning o'qituvchi rahbarligida mustaqil bilim olishlarini tashkil etish usullari va turlari.
15. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy – siyosiy islohotlar.
16. Inson va jamiyat, Inson va Vatan, Inson va millat tushunchalari, munosabatlarining mazmunan farqi.

17. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
18. Shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillardan foydalanishning samarali usullari.
19. Fundamental tadqiqotlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
20. Ilmiy tadqiqot inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi
21. Tasvirlash, tavsiflash, tushunish va tushutirishning ilmiy tadqiqotdagi o'rni
22. intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibliigi
23. Intellektual mulk huquqi: innovasiya va novasiyalar, kashfiyot va ixtiro
24. Magistrlik dissertatsiyasiga oid ilmiy maqola va tezis tayyorlash;
25. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablar.
26. Magistrlik dissertatsiyasiga mavzuga oid adabiyotlarni sharhlash;
27. Ilmiy ma'lumotlarni saralash;
28. Dissertasiyaga annotasiya tayyorlash;
29. Dissertasiyaning kirish qismini tayyorlash
30. Magistrlik dissertatsiyasining taqdimotini tayyorlash

Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. (Mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish fanning xususiyatidan kelib chiqib kafedrada ishlab chiqiladi)

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3. V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

Talaba bilishi kerak:

- fanning tushunchalari, asoslarini, o'ziga xos xususiyatlarini, yo'nalishlari haqidagi bilim ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- uslub va usullarni egallashi, uni mustaqil tahlil qilish va ilmiylik darajasini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- fanning ma'lumotlar va usullardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- fan doirasidagi o'quv ilmiy axborotni, muayyan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish malakalariga ega bo'lishi lozim.

**4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
	<b>VIII. Asosiy adabiyotlar</b>
1	Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y., 120 b.
2	Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Ergashev O.K. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent.: TDIU, 2020, 262 b.
3	Mavlonov A., Abdalova S., Allamberganova M. O'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2013. – 142 b.
4	Tojiboeva D., Yo'ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, "Aloqachi", 2009.
5	Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2018.
	<b>Qo'shimcha adabiyotlar</b>
1	Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2	Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va insonmanfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017
3	Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
4	Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimigakirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T.: «O'zbekiston» 2016.
5	Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent: TDPU, 2003.
6	Xodjabaev A.R., Xusanov I. Kasb ta'limi metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Aloqachi", 2007.
7	Sharipov SH.S., Vorobev N.A., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasbiy ta'lim pedagogikasi.- Toshkent, TDPU, 2005.

8 Olimov T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D.  
Kasb ta'limi uslubiyati.- Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2006.

#### Axborot manbalari

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.google.ru](http://www.google.ru)

	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> M.Fayzullayeva TISU, "Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori
	<b>Taqrizchilar:</b> <b>Qobilov E.O.</b> – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor tarix fanlari doktori professor. <b>Xoliqov Z.E.</b> – TerDU, "O'zbekiston tarixi va manbashunoslik" kafedrası katta o'qituvchisi, dotsent